

**ISHLAB CHIQARISH KORXONASIDA SOLIQLARNI HISOBGA OLISH VA
SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Ilmiy rahbar: Baxromov Azizbek Alisher o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Menejment” kafedrasi assistenti,

Rustamov Xurshidbek Marufjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Email: xurshidbekrustamov0411@gmail.com

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo'lib, mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishning muhim moliyaviy vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalari tomonidan to'lanadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining sezilarli qismini tashkil etadi va ularning o'z vaqtida hamda to'liq undirilishi mamlakat moliyaviy barqarorligining kafolatidir.

Soliqlarning to'g'ri hisobga olinishi va tahlil qilinishi korxona moliyaviy faoliyatining shaffoqligini ta'minlaydi, soliq yukini oqilona boshqarish imkonini beradi hamda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, korxonalarda soliq hisobi tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, amaldagi soliq qonunchiligiga rioya etish va soliqlarni byudjetga o'z vaqtida to'lash masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1]. Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekistonda soliq siyosatini liberallashtirish, soliq turlarini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy yukini yengillashtirib, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish korxonasida byudjetga to'lanadigan soliqlarning turlari, ularni hisobga olish tartibi hamda ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, soliq hisobini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi ham dunyoning ko'plab mamlakatlari singari o'zining davlat xarajatlari va ijtimoiy xizmatlarini moliyalashtirishda asosan soliq tushumlariga tayanadi. So'nggi yillarda hukumat byudjet daromadlarini oshirish, soliqlarning yig'iluvchanligini yaxshilash va soliq tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda.



Soliq tizimini yanada shaffof va samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda soliq ma'muriyatini modernizatsiya qilish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish va soliqqa tortish jarayonlarini soddalashtirish yo'nalishida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi soliq tizimida ayrim kamchiliklar ham mavjud. Ularning eng asosiylaridan biri — soliqqa tortish mexanizmining murakkabligi va ayrim soliqlarda stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liqdir. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”gi farmonida batafsil qayd etilgan. Mazkur hujjatda soliq tizimini soddalashtirish, biznes faolligini oshirish, sog'lom raqobat muhitini yaratish va soliqlarni yig'ish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bir qator tizimli vazifalar belgilab berilgan.[2] Ushbu farmon doirasida aniqlanishicha, qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) undirilish mexanizmi samarasizligi, oraliq iste'mol bosqichlarida mahsulot qiymatining sun'iy oshishi, soliq imtiyozlarining nazoratsiz qo'llanilishi hamda soliq ma'muriyatchiligi va elektron nazorat tizimlarining zamonaviy talablarga javob bermasligi muammoli yo'nalishlar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, davlat soliq organlari o'rtasidagi ma'lumot almashish tizimlarining sustligi soliq jarayonlariga inson omilining yuqori darajada aralashishiga, natijada korrupsiya xavfi va soliqlarning to'liq undirilmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliqlarda stavkalarining yuqoriligi ham muhim muammolardan biridir. Bu holat biznes faolligini pasaytiradi, ayrim korxonalarda soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini kuchaytiradi va yashirin iqtisodiyotning kengayishiga sabab bo'ladi. 2023-yil avgust oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi 40 foiz atrofida bo'lib, bu qariyb 32 milliard AQSh dollariga teng. Eng katta yashirin iqtisodiy faoliyat qurilish sohasida (80–90 trln so'm) kuzatilgan bo'lib, bu umumiy yashirin iqtisodiyotning 6–7 foizini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi, tamaki va alkohol mahsulotlari, shuningdek zargarlik buyumlari savdosi ham sezilarli ulushga ega.[3] Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichi ancha past: Yaponiyada 9,6%, Avstraliyada 8,7%, Shvetsariyada 7,5%, AQShda 7,3%, Germaniyada 11,2%, Singapurda 10,4% va Fransiyada 13,1%. Bu esa O'zbekistonda soliq tushumlarining kamayishi va byudjet barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida mamlakatda soliq qonunchiligi va



me'yoriy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Soliq tizimini soddalashtirish, soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, soliq nazoratini raqamlashtirish, soliq organlari xodimlarini o'qitish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida va ixtiyoriy to'lagan subyektlarni rag'batlantirish, soliq intizomini mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosiy maqsadlardan biridir.

Natijada, ushbu islohotlar ijobiy samara bera boshladi. Soliq tushumlari oshdi, yashirin iqtisodiyot qisqara boshladi, QQS, aksiz va mol-mulk soliqlarining byudjetdagi ulushi sezilarli darajada ko'paydi. Bundan tashqari, korxonalarni yillik aylanmasi bo'yicha mikro, kichik va o'rta biznes toifalariga ajratish amaliyoti joriy etildi. Unga ko'ra:[4]


1. 1 milliard so'mgacha aylanmaga ega korxonalar — mikro biznes,
2. 10 milliard so'mgacha bo'lganlar — kichik biznes,
3. 100 milliard so'mgacha aylanmaga ega korxonalar — o'rta biznes deb belgilandi.

2023-yildan boshlab mikro biznes subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi yagona 4% etib belgilandi (ilgari 4–25% oralig'ida edi). Uzoq hududlardagi tadbirkorlar uchun 1–2% stavkalar saqlab qolindi yoki ular yiliga 20–30 million so'm to'lov evaziga buxgalteriya hisobi yuritish va soliq hisobotini taqdim etish majburiyatidan ozod qilindi. Shuningdek, 2023-yil 1-yanvardan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 15 foizdan 12 foizgacha kamaytirilishi soliq to'lovchilar sonining oshishiga va soliqlardan bo'yin tovlash holatlarining kamayishiga olib keldi. 2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra QQS to'lovchilarning soni 192 059 taga yetdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 13,2 foizga ko'p demakdir.



1-rasm.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari dinamikasi[5]



Ushbu raqamlar orqali qaysi tarmoqlar qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) to'lashda yetakchi o'rin tutayotganini, shuningdek, ayrim sohalarda soliq majburiyatlarini bajarish ko'rsatkichlari yildan-yilga yaxshilanib borayotganini kuzatish mumkin. Soliq tizimidagi bunday ijobiy o'zgarishlarning dastlabki bosqichi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 10-iyulda qabul qilingan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni keltirish mumkin. Mazkur qaror asosida mamlakatda soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, qulaylashtirish va soliq siyosatini muvofiqlashtirish yo'lida amaliy qadamlar tashlandi.

Natijada, mehnatga haq to'lash jamg'armasiga yuk bo'layotgan soliq darajasi kamaytirildi, aylanmadan olinadigan soliqlar va mol-mulk solig'i optimallashtirildi. Shu bilan birga, aksiz solig'i stavkasi uch marotaba qayta ko'rib chiqildi, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'xtatildi, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi esa pasaytirildi. Bu islohotlar soliq tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Keyingi yillarda ushbu yo'nalishdagi islohotlar izchil davom ettirildi. Xususan, Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida soliq siyosatini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish masalalari alohida e'tibor bilan yoritildi. Mazkur strategiyaning 46 va 56-maqsadlari bevosita soliqqa oid islohotlarni qamrab oladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi maqsadlarga muvofiq, yaqin yillarda mamlakat soliq siyosati tubdan yangilanishi, soliq tizimi ham soliq to‘lovchilar, ham davlat byudjeti uchun shaffof, sodda va samarali shaklga keltirilishi rejalashtirilgan.

2023-yil 1-aprelidan boshlab esa ayrim soliq imtiyozlarini berish tartibida o‘zgarishlar kiritildi va quyidagi turdagi imtiyozlar bekor qilindi:[6]

1. Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va tiklash bo‘yicha davlat dasturlarida amalga oshiriladigan geologiya xizmatlari aylanmasi;

2. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar realizatsiyasiga oid aylanmalar;

3. Byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarning realizatsiyasiga doir aylanmalar.

Bundan tashqari, 2023-yil 1-iyuldan e‘tiboran O‘zbekiston Milliy gvardiyasi qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun ham ilgari taqdim etilgan soliq imtiyozlari bekor qilindi. Shu bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari sifatida qayd etila boshlandi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimizda soliqlardan bo‘yin tovlash holatlarini kamaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va davlat byudjetining daromad qismini barqarorlashtirishga sezilarli hissa qo‘shdi. Shu tariqa, soliq siyosatini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiyotning ochiqligi va moliyaviy intizomning kuchayishiga erishilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi PF-5468-sonli “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni; <https://www.lex.uz/>

2. 2019-yil 9-noyabrda “O‘zbekistonda soliq va moliya tizimini rivojlantirishning konsepsiyalarini amalga oshirish istiqbollari to‘g‘risida”gi respoblika ilmiy-amaliy anjumani muhokamasi; <http://tsue.uz/uz/>

3. Allayarov, S. A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128.



4. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 7920- 7926.
5. Сатторов, Б. К., & Аллаяров, С. Р. (2017). Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов. *Наука, техника и образование*, 1(5 (35)), 98-100.
6. Аллаяров, С. Р., & Кандахарова, Ш. Н. (2021). ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ. *СТОЛИЦА НАУКИ*, 3, 4.

